

МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕҢДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/1-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Nusratova H. Ch. Ilmiy-ommabop matn va maqlolarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari	6
Rustamova Z. Dialektal korpus korpus lingvistikasining o'rganish ob'ekti sifatida	16
Bakiyeva H. S. Ona tili ta'limdi o'quvchilarning matn ustida ishlash va matn yararish ko'nikmalarini shakllantirish	21
Рамазанова Р. А. Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы	27

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ibadullayev Q. M. O'rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati	34
Xolmatova S. K. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubiyati	38
Narimbaeva L. K. Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlan tipishning muhim xususiyatlari va komponentlari	44
Rustamov L. X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari	51
Tursaotov A. E. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari	55
Mirzakarimova M. M. O'quvchilarning tadbirdorlik ko'nikmalarini rivojlan tirishda chil texnologiyalari	60
Jumanova F. U. Dars- ta'llimi taskil etishning asosiy shakli	64
Обидов А. Э., Джурاءв А. С. "Адаптив таълим" ходисаси ва унинг ўзига хослиги	69
Бозорова М. Қ. Ўкучи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик гоялардан фойдаланиш	82
Yarashev A. N. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarda ijtimoiy faoliik ko'nikmalarini rivojlan tirishning didaktik ta'lomi	86
Otamurodova Sh.Q. Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdag'i o'rni	92
Mamanazarova N. K. Xalq ta'llimi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini taskil etish mexanizmi	100
Egamberdiyeva M. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari	107
Шерматов Б. Б. Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов	112
Нигманов Б. Б. Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения	117
Мухамеджанов Ш. М. Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни	122
Нурманова Н. Қ. Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования	129

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ,
ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Алтинов И. И. Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, захирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаюм Сабирович хақида)	135
Давлетбоев Д. Е. Қорақалпоқ халқининг лочини	141



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Asanova U. S. Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardıń óz betinshe jumislarin shólkemlestirildiń ózine tán ózgeshelikleri	148
Isaqov J. A. Grafik ta'lím samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiyları imkoniyatlari	152
Isaqov J. A. Umumiy o'rta ta'lím tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari	157
Polotov K. K. To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi	162
Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И. Бўлгуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўкув тезаурусидан фойдаланиш	167
Azatova S. N. Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarida tartibga solish universal o'quv harakatlarini shakllantirish haqida	173

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Shanasirova Z. Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantrish yo'llari	179
Xurvaliyeva T. L. Maktabgacha ta'limdä art-texnologiyalardan foydalanish	185
Abdullayev A. A. Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari	189
Teshabayeva Z. S. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro'li	194
Nosirova R. X. Maktabgacha ta'lím tashkilotining oila, mакtab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari	198
Xidoyatova N. A. Maktabgacha ta'limdä qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	204
Karimjonova D. A. Maktabgacha ta'lím muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantrishning interaktiv metodlari	208
Tursunboyeva M. D. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari	213
Abdijabborova S. Q. Milliy harakatlari o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash	218
Soatov E. M. Harakatlari o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish jihatlari	222
Abdijabborova S. Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari	227
Ismanova M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari	231
Atabekov F. O. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi	237
Buriyeva A. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantrish	241
Ilesova L. A. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o'rni	244
Abduraximov D. D. Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish	248
Azamatova D. Sh. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati	252
Kodjaxanova K. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari	257
Ilesova L. A. Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish	261
Abdullayeva L. U. Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lím jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish	267



HARAKATLI O'YINLAR KLASTERI SHAROITIDA AMALIY KO'NIKMALARНИ SHAKLLANTIRISH JIHATLARI

Soatov E. M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Bolalar sporti kafedrasи katta o'qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: klaster, kurash, jismoniy tarbiya va sport, harakatli o‘yinlar, pedagogik innovasion texnologiya, muvofiqlashtirish, amaliy faoliyat, amaliy ko‘nikma, pedagogik jarayon.

Ключевые слова: кластер, борьба, физическая культура и спорт, подвижные игры, педагогическая инновационная технология, координация, практическая деятельность, практические навыки, педагогический процесс.

Key words: cluster, wrestling, physical culture and sports, outdoor games, innovative pedagogical technology, coordination, practical activity.

O‘zbek halqining qadimiy qadriyatlari, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish, dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prezidentimizning «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4881-son qarorida buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni maqsad qilgan[1]. Kurashni ommalashtirish, uning jahon sporti durdonasiga aylanishiga erishish, kurashni aholi o‘rtasida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilish masalalalari ta’lim muassasalarida uning amaliy ko‘nikmalar sifatida shakllantirishni taqozo etadi.

Bu ayni paytda jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish va o‘qitishga oid ta’lim tizining faol uslublari qayta ko‘rib chiqilishi hamda markaziy o‘rimni harakatli o‘yinlarga muvofiqlashtirishning davr talabiga aylanib borayotganligini bildiradi. Harakatli o‘yinlar ijtimoiy-madaniy sohaga ham bevosita bog‘liq



bo‘lib, bolalarni faoliyatidan qoniqish olish, jamiyatni faol a’zosiga aylanish, ijtimoiylashish jarayonini tezlashtirish omillarini o‘zi ichiga oladi.

T.Usmonxodjaev, Sh.Isroilov, A.Pulatov va Sh.Pulatovlarning bu borada ilmiy muloahazalariga ko‘ra, harakatli o‘yinlar falsafa, pedagogika va psixologiyaga oid manbalarda o‘yin fenomenining umuminsoniy madaniyati zamirida shakllangan ijtimoiy-madaniy sohalar uchun ham mazmun-mohiyat berib turar ekan. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik muammolarni tasniflash, harakatli o‘yinlarni tasniflash bilan bevosita bog‘liqligi bayon etilgan[2].

Ta’lim muassasalari amaliyotidagi jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda, ta’lim oluvchilar tomonidan jismoniy mashqlarni yaxshi va sifatli o‘zlashtirishlari uchun, eng avvalo, harakatli o‘yinlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bevosita ularning kundalik turmush tarzi bilan bog‘liqidir. Shuningdek, harakatli o‘yinlar, mobillik xususiyatiga ya’ni, amaliy mashqlarga tez moslashuvchanlik ko‘nikmalariga ega bo‘lib, tez o‘zgaruvchan, noqulay sharoilarda bajariladigan, har qanday sport mashg‘uloti bilan bemalol shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yarata olishga o‘rgatadi. Shu bilan birga ta’lim oluvchilarda natija va samardorlikka erishish mumkin bo‘lgan ongli va anglangan faoliyatni amalga oshirishda zamin bo‘lib xizmat qiladi.

L.P.Matveevning ilmiy yondashuviga ko‘ra, harakatli o‘yin faoliyatini amalga oshirayotgan ishtirokchi o‘yin jarayonida ijodiy tashabbuskorlik ko‘rsatgan holda, jamoada erkin harkat qilish malakasini egallaydi. Shuning uchun ham uning nuqtai nazaricha harakatli o‘yinlar kursini sport va jismoniy tarbiya sohasida faoliyat olib boradigan pedagog kadrlarni tayyorlashda eng muhim fan sifatida qarash va undan maqsadli foydalanish lozim[3].

Tahlillarga tayangan holda, harakatli o‘yinlarning amaliy ko‘nikma sifatida shakllanishi ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida, xususan pedagogik oliv ta’limlarda jismoniy tarbiya mutaxsislarini tayyorlashda samarali tashkil etish va undan maqsadli foydalanish metodikasini yangi avlodini ishlab chiqish ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy pedagogik zaruriyat deb qarash lozim. Ushbu yondashuvimiz L.V.Byleeva tomonidan igari surilgan ilmiy g‘oyaga mos bo‘lib, ta’lim tizimida sport va jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlarini amalga oshirishda harakatli o‘yinlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish xususan, amaliy ko‘nikmalarning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish lozim[4]. Chunki, harakatli o‘yinlarning amaliy imkoniyatlari bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllanishi, kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni mukammal egallashi, sohaning barcha tarkibiy qismlarini o‘zlashtirishining asosi bo‘lib, faoliyati jarayonida kreativlik bilan uslubiy yondashuvlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi



Harakatli o‘yinlar kursini tashkil etish va muvofiqlik asosida amaliyatga joriy etish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish muhim masala bo‘lib, u ko‘p jihatdan kadrlar masalasi va ular uchun zarur bo‘lgan dasturiy-uslubiy ta’minot masalalarining klasterli tizimiga bevosita bog‘liqdir. Ta’kidlash lozimki klaster tizimini harakatli o‘yinlar bilan bog‘lashdan oldin, ushbu tushunchaning ilmiy va amaliy jihatdan yoritilgan nuqtai nazarlarini tahlil etib o‘tish maqsadga muvofiq. «Klaster» tushunchasi birinchi marta XX asrning 80-yillarda M.Porter tomonidan iqtisodiyot sohasiga aloqador termin sifatida kompaniyalarni o‘zaro hamkorligi va raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan uning iqtisodiy muhiti hamda o‘zaro aloqadorlikdagi muvofiqlashgan tartibdagi faoliyatga bog‘liqligini nazarda tutgan.

Yu.V.Ananina ilmiy tahlilga ko‘ra, Yevropa mamlakatlari ta’lim jarayoniga klasterli yondashuv 90-yillarda kirib kelgan. Xusan, zamonaviy innovation nazariy g‘oyalar tibbiyot amaliyotiga kirib borib, bir biridan faoliyat turidan farq qiladigan sohalarni o‘zaro muvofiqlashgan holda ishlash tizimini yuzaga chiqargan holda mahalliy davlat hokimiyati organlari, oliy o‘quv yurtlari, xususiy korxonalar, xayriya jamg‘armalari o‘rtasida manfaatli hamkorlikka asosidagina faoliyat turini yuzaga keltirdi[5].

Harakatli o‘yinlar klasterini ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlari yuzaga chiqarish ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, faoliyatdagi muvofiqligini ta’minlash, bolalarni sport va jismoniy tarbiya bilan mobililik asosida tarbiyalash samaradorligini yuzaga chiqarish jarayonlariga o‘tish vositasini bo‘lib, oila, maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT), maktab, litsey, texnikum, oliy ta’lim muassasalari (OTM) va boshqa shu sohani rivojlanishiga mas’ul bo‘lgan korxona va tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, mahalliy institutlar, moliyaviy qo‘llab turadigan nodavlat va notijorat, hamda hokimiyat organlari o‘rtasida konstruktiv munosabatlarni o‘rnatishga muhim hissa qo‘sishadi.

Harakatli o‘yinlar asosida kurash elementlarini shakllantirish orqali amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini ta’minlashda nafaqat trener va shug‘ullanuvchi faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Balki, uyda ota-onasi hamda kattalar, mahalladagi tengqurlar hamda tegishli hokimliklarning qo‘llab-quvvatlashlariga ham aloqador. Aynan ta’lim-tarbiyaning, jismoniy harakatlar uyg‘unligini ta’minlash mazkur muhiti ta’limda klaster yondashuvni, harakatli o‘yinlarni ommalashishi va uning istiqbollarini yanada ochib berishga imkoniyat tug‘diradigan tizimli jarayon bo‘lib sifatli ta’lim xizmatini tashkil etishni izohlaydi. Klasterni ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlari jismoniy tarbiya va sport sohasini mazmun-mohiyatini yangi bosqichga olib chiqadigan jarayon bo‘lib, uning amaliy jihatlarini tubdan o‘zgartiradi. Bunda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari bevosita hokimiyat say-harakati asosida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, davlat



va nodavlat institutlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimini rivojlantirish asosida harakatli o‘yinlarni tizmilashtirish, hamda pedagogik innovation texnologiyalarga muvofiqlashtirish orqali amaliy faoliyatga aylantiradi. Amaliy nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda klasterli yondashuv asosida harakatli o‘yinlarni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish masalasi ijtimoiy zaruriyatdir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim klasteri mexanizmi mobil xususiyatga ega bo‘lib, qaysi sohaga qo‘llanmasin uning istiqbolini belgilab beruvchi omilga aylanadi. Fikrimizni V.V.Alekseev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishi ham asoslaydi ya’ni, ta’lim klasterlarini amaliyotda joriy etish ko‘pincha sohalarni rivojlantirish va shakllantirish jarayonini uzluksiz va samarali bo‘lishini ta’minalashga qaratilgan yondashuvdir[6]. Harakatli o‘yinlar klasterining pedagogik shart-sharoitlarini yaratish, ta’limni tashkil etishning mazmun-mohiyatiga yaqin bo‘lgan mulohazalar U.M.Zokirov va T.R.Karimov tomonida ilmiy tahlil etilgan bo‘lib, ushbu mualliflar jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida harakatli o‘yinlardan maqsadli foydalanish lozimligi, harakatli o‘yinlar xalqning sog‘lig‘ini mustahkamlash va tarbiyalash vositasi ekanligini ta’kidlashgan[7].

Demak, harakatli o‘yinlar klasterini ta’minalashning pedagogik shart-sharoitlari muhim pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, avlodlar salomatligi va sog‘lig‘ini taminlovchi vosita bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sog‘lom-turmush tarzini ommalashtiruvchi omil hamdir. Bunda eng avvalo, pedagogik shart-sharoitni ta’minalash ustuvor masala hisoblanib, ijtimoiy ong va ijtimoiy faollik tushunchalarini bevosita singdirish ta’lim tizining eng quyi bo‘g‘inidan va oiladan boshlanishi lozimligi xususida biz uchun ahamiyatlari bo‘lgan ma’lumotni beradi. Bu yerda yaratiladigan pedagogik sharoitlar ta’lim muassasalarida beriladigan nazariy bilimlarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga ustuvorlik berishiga qaratiladi. O‘quvchilarda shakllanadigan amaliy ko‘nikmalar sog‘lom turmush tarzini bir insonga singdirishda oila, MTT, maktab, OTM va jamiyatning barcha sub‘ektlari faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Harakatli o‘yinlarning klasteri ta’milansa, ta’sir omillari bilan bog‘lansa shunchaki sport mashg‘uloti bo‘lib qolmasdan, davlat va jamiyat hayoti uchun zarur ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan vosita darajasiga ko‘tariladi. Shuningdek, harakatli o‘yinlarni ommalashtirish sog‘liq uchun foydali, balki ma’naviy jihatdan shaxs kamolotiga ham xizmat qilgan holda uning ongi va duyoqarashi, o‘zi va boshqalar uchun mas’ul ekanligi, jamiyatning faol a’zasi sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi faoliyat turini xarakter xususiyatiga aylanishiga zamin bo‘ladigan tarbiyaviy vositadir.

Shuningdek, jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida mehnat o‘yindan yuqori tursada, ammo bola hayotida o‘yin faoliyati mehnatdan oldin ekanligi haqidagi ilmiy nazariyani ma’qulagan holda, xulosa qiladigan bo‘lsak, harakatli o‘yinlar



klasterini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini yaratishda bolaning turli amaliy harakatlarini amalga oshirishda ta'lim sub'ektlarining ham mas'ulligi esa bolaning tezroq ijtimoiylashuv omili bo'lishi, kelajakda mavjud qobiliyatlarini to'liq namoyon etgan holda davlat va jamiyatning itellektual mulkini zamiri hamdir.

Harakatli o'yinlar, sport va jismoniy tarbiyaning milliy vositalari hamda dasturda umumiy qabul qilingan sport turlari va mashqlaridan kompleks foydalanishni klasterga asoslangan pedagogik shart sharoitlari fanlararo muvofiqlikni taqozo etadi. Bu jarayonni ruyobga chiqarish milliy harakatli o'yinlari va jismoniy mashqlarini fanlarning metodologik asoslariga tayanga holda amalga oshirish imkoniyatini ta'minlab, turli yosh va jinsdagi yoshlar bilan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси президентининг «Кураш миллий спорт турини ривожлантириш ва унинг халқаро нуфузини янада ошириш чора-тадбирлари тўг'рисида»ги 2020 йил 4 ноябрдаги ПҚ-4881-сон қарори.
2. Усмонходжаев Т.С., Истроилов С.Н., Пулатов А., Пулатов С. “Миллий ва һаракатли ўйинлар” Дарслик. Тошкент -2015. – Б. 89.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: учебник для ин-ститутов физ. култ. - М.: Физ, 2008. – С. 149
4. Быллеева Л.В. Подвижные игры. Практический материал: Учебное пособие для студентов вузов и сувузов физической культуры. – М.: Спорт Академ Пресс, 2002. –С 50.
5. Ананина Ю.В. Образовательная среда: развитие образовательной среды среднего профессионального образования в условиях сетевой кластерной интеграции./ Ю. В. Ананина, В. И. Блинов, И. С. Сергеев; под общ.ред. д-ра пед. наук, проф. В. И. Блинова. – Москва: Аванглион-принт, 2012. - С. 152.
6. Алексеев В. В. Программно-целевое управление развитием социального партнерства Вестник московского городского педагогического университета.серия: экономика. Издательство: МГПУ 2012. - С.89-102
7. У.М.Зокиров, Т.Р.Каримов Башланг'ич синф ўқувчиларини жисмоний тарбиялашда һаракатли ўйинлардан фойдаланиш усувлари. Academic research in educational sciences Volume 2 |ISSUE 2|2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021:

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada harakatli o'yinlar klasterini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish, ta'lim tizimida amaliy ko'nikmalar rolini oshirish, nazariy-amaliy faoliyatdagi muvofiqligini ta'minlash, MTT, maktab, litsey, texnikum, OTM va boshqa shu sohanasi rivojlanishni konstruktiv jihatlari hamda klaster sharoitida harakatli o'yinlarni ommalashtirish istiqbollari xususida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрено создание педагогических условий для обеспечения кластера подвижных игр, повышения роли практических навыков в системе образования, обеспечения совместности теоретической и практической деятельности, конструктивных аспектов развития МТТ, школы, лицей, техникум, высшие учебные заведения и другие направления в этой сфере, а также перспективы популяризации мобильных игр в кластерных условиях.

SUMMARY

This article discusses the creation of pedagogical conditions for providing a cluster of outdoor games, increasing the role of practical skills in the education system, ensuring the compatibility of theoretical and practical activities, constructive aspects of the development of MTT, schools, lyceums, technical schools, higher educational institutions and other areas in this area, as well as prospects for the popularization of mobile games in cluster conditions.



Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮЙ»

№ 1/1

Нөхис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәнзил: Нөхис қаласы, Ернаzar Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналга келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда жергияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендирүй» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген маглұйматтарға автор жууапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100^{1/8}
«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Бүйыртпа №